

**Omonqulova Mohinur Zokir qizi**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola pedagog o'qituvchilar va bo'lajak pedagoglar uchun faoliyati jarayonida asqotadigan ta'lim standartlariga mos ravishda zamonaviy texnonogiya va uning turlaridan umumli foydalanish, pedagogik texnologiyaning maqsad va vazifalari, hozirgi zamon olimlarining zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan munosabati haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Texnologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiya turlari, o'yin texnologiyasi*

Avvalo, pedagogika atamasi “yo'lda kuzatib boruvchi” degan ma'nosidan anglashiladiki o'qituvchi pedagog ham har bir o'quvchini kuzatib, bilimlar olamiga ilk qadamidan tortib yetuk olim, fan arbobi darajasigacha bo'lgan davrda ham ko'maklashishi shart va lozim.

Texnologiya so'zi grekchadan olingan bo'lib “texnos”-san'at,mahorat “logos” ta'limot degan ma'nolarni anglatadi. Pedagogik texnologiya atamasi shakllanishida va rivojlanish tarixida ham turlicha qarashlar mavjud bo'lib,u avvalo texnik vositalar haqidagi fan,ta'limot deb qarashgan yana shunday qarashlar ham mavjudki, pedagogik texnologiya tushunchasini o'qish jarayonlarini rejorashtirilgan holda izhil va muntazam tashkil etish, ya'ni o'qitish jarayonlari bir chiziq ustida tashkil etish ,bir xillikdan chekinish jarayonda yangi usullardan foydalanish ko'nikmasi deb ham tushuniladi.

“Pedagogik texnologiya” atamasi aynan bir fan doirasida emas balki umumta'lim maktab darslari va oliy ta'lim dars jarayonlarida ham qo'llash mumkin. Pedagogik texnologiyadan foydalanishdan oldin pedagog o'qituvchi texnologiyalarning maqsad va vazifalari tizmini bilib olgan bo'lisci va qo'llanajak texnologiyani o'quvchilari ongidagi ijobjiy qarashlar uyg'ota olishi kabi tomonlarini chuqur anglagan bo'lisci lozim. Har bir qo'llanilgan texnologiya o'quvchilar uchun nazariy va amaliy bilimlar orasida ko'priq, nazariy saboqlarni amaliyotda qo'llay olishi ko'nikmasini shakllantira bilishi lozimdir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy negizi-pedagoglarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan holda natijaga hamrohlikda erisha olishlari uchun tarqalgan texnologiyalarga bog'liq.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J.Korol, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov ,L.I.Zarkovlarning texnologiyalari mashxur bo'lgan.

Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish darajasidagi faoliyat yo'nalishlarini tushuniladi..Bu yerda izlanishlarning mohiyati pedagogik tizmini tashkil etuvchi elementlarni o'rganish asosida modernizatsiya qilishdan iboratdir. Sababi, har qanday o'quv tarbiyaviy jarayonini tashkil etishi u yoki bu pedagogik tizimni aks ettiradi. Demak, PT amaliyotiga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizmning loyihasidir.

Pedagogim texnologiyaning asosiy unsurlaridan biri, XXI asr texnika texnologiya asri ekanligini anglagan holda o'quvchilarga dars jarayonlarlarini axborot texnologiya vositalaridan unumli foydalangan holda tashkil etishdir. Bunda o'quvchilar ko'rish orqali tushuncha hosil bo'ladi va dars jarayonlariga nisbatan qiziqish va faollik ortadi, ko'nikma hosil bo'ladi.

Pedagogik texnologiyani dunyoning yetuk olimlari ham ta'limda tatbiq etish taraffori bo'lib o'zlarinig fikrlarini olg'a surishmoqda.Masalan P.V. Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. Pedagogik texnologiyani qo'llay olish o'qituvchi pedagogning mahoratiga ham bog'liqdir.Bespalko pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi.pedagogik texnologiyani qo'llashda asosiy diqqat o'quv pedagogik jarayoni avvaldan loyihalashtirilishiga qaratiladi

N.F.Talizinaning fikricha har bir pedagog real pedagogik jarayonini tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizmini bilib olgan bo'lishi shart. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiquvchi ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak deb hisoblaydi

Rossiyalik olimlardan yana biri-V.M.Manaxov "pedagogik texnologiya avvaldan rejalahtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizmidir degan ta'rifni ayta turib pedagogik texnologiyaniq asosiy xususiyatlariga e'tibor qaratib" pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnologiyalashtirib ,uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon uyg'unligini oshirish jarayonini ijrochisining subektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi", -deydi u.

Pedagogik texnologiya — psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi

bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalaming maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bespalko).

«Pedagogik texnologiya— rejalahtirilgan o 'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«Texnologiya — ishlov berish, holatni o 'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. Shepel).

«Pedagogik texnologiya — talaba va o‘qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o‘quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o‘tkazish bo‘yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o‘ylangan modelidir.» (V. M. Manaxov).

«Pedagogik texnologiya— bu ta’lim shakllarini jadallashtirish vazifasini

ko‘zlagan o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ulaming birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YUNESKO).

«Pedagogik texnologiya—pedagogik maqsadlarga erishishda

foydalilaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo‘lishning tizimli yig‘indisi va tartibini bildiradi» (M.V.Clarin).

«Pedagogik texnologiya —o‘zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta’riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi». (G.K.Selevko).

Pedagogik texnologiya o‘ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik

natijalarga erishish uchun, pedagogik tizinuing barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta’lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

«Pedagogik texnologiya — psixologik va pedagogik o‘gitlar yig‘indisi

bo‘lib, shakllar, metodlar, usullar, o‘qitish yo‘llari, tarbiyaviy vositalaming maxsus to‘plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

Pedagogik texnologiya turlari:

O‘yinli texnologiyalardan foydalananishning asosini talabalarning

faollashtiruvchi va jadallashtinivchi faoliyati tashkil etadi. O‘yin olimlar

tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O‘yin ijtimoiy tajribalami o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi.

O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

O‘yindan tushunchalar, mavzu va hatto o‘quv predmeti bo‘limini

o‘zlashtirishda o‘qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalilanildi.

O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi

Pedagogik texnologiyaning bu turi eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardir. O‘yin texnologiyasida o‘quvchilar o‘z bilim va malakalarini amaliyotda erkin qo‘llay olish,

mavzu yuzasidan ko‘nikma hosil qilishda yordam beradigan, o‘qituvchi pedagoglar uchun ham tashkil etish murakkab bo‘lmagan asosiy usullardan biridir.

**FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR:**

1. H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova E.U.Eshchonov- Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Iqtisod-Moliya. Toshkent. 2009.
2. Axmedova Malohat- Pedagogika nazariyasi va tarixi. Tafakkur-Bo‘stoni. Toshkent. 2011
3. R .A .Mavlona, N.H .Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M .K .Shirinov , S .Ilafizov. Umumiy pedagogika . .: « Fan va texnologiya», Toshkent, 2018,